

Ikromjon Azizov,
*Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori
e-mail: ikromjonazizov77@mail.ru*



O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA DAVLAT VA FUQARO MUNOSABATLARI

Annotatsiya. *Fuqarolarning muammolarini davlat miqyosida ko'rib chiqish usuli turli davr va turli davlatlarda o'ziga xos ravishda bo'lgan. O'zbek davlatchiligi tarixida ham fuqarolarning muammosini o'rganish va ularni ijobiy hal qilish masalasi davlat va fuqaro munosabatlari ko'rsatib beradi. Amaldorlar amirga yozgan hisobotlarida minnatdorchilik izhorlarini ma'lum qilishgan. O'rganilgan hujjatlar tahlili Buxoro amirining arki o'z davrida fuqarolar muammosini eshitadigan va uni insonparvarlik tamoyillari asosida qonuniy ko'rib chiqadigan qabulxona vazifasini bajarganini ko'rsatadi.*

Аннотация. *Способ рассмотрения проблем граждан на государственном уровне был уникальным в разные периоды и в разных странах. В истории узбекской государственности вопрос изучения проблем граждан и их решения положительно показывает взаимоотношения государства и граждан. В своих отчетах эмиру чиновники сообщали о выражении благодарности гражданами, обратившимися к ним за благосклонностью. Анализ изученных документов показывает, что свод бухарского эмира выполнял функцию вестибюля, где глава государства выслушивал проблемы граждан и рассматривал их на законных основаниях, исходя из принципов гуманизма.*

Annotation. *The way in which the problems of citizens were considered at the state level was unique in different periods and in different countries. In the history of Uzbek statehood, the issue of studying the problems of citizens and their solution positively shows the relationship between the state and citizens. In their reports to the emir, officials reported on the expression of gratitude by citizens who turned to them for favor. The analysis of the studied documents shows that the code of the Emir of Bukhara served as a vestibule where the head of state listened to the problems of citizens and considered them legally, based on the principles of humanism.*

Tayanch soʻzlar: *davlat, fuqaro, boshqaruv, Buxoro, amir, qushbegi, amirlik, arznoma, hokim, rais, qozi.*

Ключевые слова: *государство, гражданин, управление, Бухара, эмир, кошбеги, эмират, заявление, губернатор, председатель, судья.*

Keywords: *state, citizen, government, Bukhara, emir, koshbegi, emirate, statement, governor, chairman, judge.*

Kirish. Davlat va davlatchilik masalalari shakllangan davrlardan boshlab davlat va fuqarolar munosabati doimo dolzarb boʻlib, tarixiy voqeliklarni oʻzida aks ettirgan. Fuqarolarning muammolarini davlat miqyosida koʻrib chiqish usuli turli davr va turli davlatlarda oʻziga xos ravishda boʻlgan. Oʻzbek davlatchiligi tarixida ham fuqarolarning muammosini oʻrganish va ularni ijobiy hal qilish masalasi davlat va fuqaro munosabatlarini koʻrsatib beradi.

Aholidan tushgan ariza va shikoyatlar bilan ishlash mexanizmi davlatchilik qonun va qoidalari shakllangan davrlardan buyon amaliyotda kuzatilib kelingan. Aholining shikoyat va arizalarini koʻrib chiqishning tarixiy asoslariga nazar soladigan boʻlsak, oʻzbek davlatchiligi tarixida ham keng rivojlangan institutlardan biri boʻlgan.

Davlat va fuqaro munosabatlarining oʻzbek davlatchiligidagi tarixiy ildizlarini Buxoro amirligi misolida koʻradigan boʻlsak fuqarolarning davlat rahbariga arz va shikoyatlar yetkazishda eʼtiqod, hurmat va madaniyat ustuvor boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Bugungi kunda Oʻzbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Buxoro amirligiga tegishli hujjatlar bunga yaqqol dalil boʻla oladi.

Asosiy qism. Fuqarolar Buxoro amiriga yoki bosh vazir vazifasini bajargan qushbegiga oʻz arzlari bildirganda ariza yozilgan qogʻozning eng yuqori qismida *Huva AlHayyu* (U tirikdir), *Huva Alfayyoz* (U toʻldirib berguvchi) kabi Yaratganning bir necha ismlarini yozishgan¹. Arizalarning oʻng yonidan qiyalatib amirga nisbat beruvchi *Hazrat Qamarkobi* (oy kabi), *Zilli Allohi* (Allohning soyasi), *Soxibam* (xoʻjayinim), *Mavloyam* (janobim, xomiyim), *sallama Allohu Ta'olo* (Allohu ta'oloning salomi boʻlsin) kabi sifatlar bilan ulugʻlab yozilgan. Soʻngra *Huva Alhayyu* soʻziga parallel ravishda ostidan *Bismi Allohu xoyru Alasmai* (Allohning va uning goʻzal ismlari bilan (boshlayman-A.I.)) deb yozilgan. Soʻngra arizaning kirish qismi boshlangan. Arizaning kirish qismida *Arza dosht in kamtarin g'ulomi du'ogo 'yi, rizojo 'y, zarra va furu 'tariyni xizmatkoron,*

¹ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 587-йиғма жилд, 11-варак.

jonsipori farmonbardor (ariza berdi bu kamtarin, duogo'y xizmatkor, farmonbardor, yaxshilik istovchi, xizmatchilaringizning kichigi va o'zini quyi tutuvchisi, o'zini qurbon qiluvchi) kabi so'zlar bilan ariza beruvchi o'zini amir yoki qushbegi oldida kamtarin ko'rilgan so'zlar bilan kirish qilgan². So'ngra murojaat qilinayotgan shaxs *amir* yoki *qushbegining* shar'iy va taxt qonuniyligiga dalolat qiluvchi unvonlari bilan hurmat bajo keltirgan holda ushbu davlatda yashab, xizmat qilayotganidan roziligini bildirgan. Arizalarda murojaat qilinayotgan shaxs unvonlarining bir nechitasi ariza beruvchi tomonidan birma-bir yozilgan holda murojaat qilinayotgan shaxsga qaratilgan.

Amirning unvon va martabalari hujjatlarda *amir almu'miniyn* (mo'minlar amiri), *imom almuslimiyn* (musulmonlar imomi), *zilli Allohu Ta'olo fi alarzayn* (Allohu Ta'oloning yerdagi soyasi), *qutbu addunya va addiyn* (din va dunyo qutbi), *umdatu assalotiyn* (ibodat ustuni), *qudratu alhavoqiyn* (nufuzlilar peshvosi), *mavloi muluki al'olamiyn* (Yaratgan mulklarining xizmatkori), *moliki aqobi umam* (ummatlarning podshohi), *bo'is alamn va alamon* (tinchlik va xotirjamlik keltiruvchi), *noshir aladl va alehson* (yaxshilik va adolat yoyuvchi) kabi keltirilgan³ bo'lsa, ba'zi hujjatlarda *kayvon rafo'at* (Zuhul (Saturn) martabali), *Mushtariy sharofat* (Mushtariy (Mars) sharaffi), *nodir alasr va addavron* (Asr va davrning nodir shaxsi), *homiya bilodi ahli ala'yon* (mamlakat ahli va ayonlarining homiyi), *xalifatu Alloh a'la alolamiyn* (Allohnin butun olamdagi o'rinbosari) kabi nomlari ham qo'shib yozilgan. Bundan tashqari, amir taxtining qudratiga dalolat qiluvchi maqto'vlar bilan ham ulug'laganlar. Jumladan, *Iskandar hashamat*, (hashami Iskandar kabi) *iskandari soniy* (ikkinchi Iskandar) kabi maqto'vlar ishlatilgan.

Amir nomiga yozilgan arizalarda O'rta Osiyoda o'rta asrlarga xos bo'lgan hujjat yuritishning barcha qonun va qoidalariga rioya qilingan. Yuqorida ko'rib chiqilganidek, Allohga bag'ishlov (invokatsiya), ariza beruvchining ism va unvoni (intitulyatsiya), ariza yo'naltirilgan shaxsning ism va unvonlari (inskripsiya), ariza qaratilgan shaxsni olqishlash (salyutatsiya), ariza yozishdan maqsad (ekskordium), ko'tarilgan masalaning sharoit va tafsilotlari (narratsiya), masala yuzasidan ko'rsatma (dispozitsiya), masaladagi sharoit va ko'rsatmalarning buzilishidan qaytarish (sanksiya), duo va tilaklar bilan xotima (apprekatsiya) qilingan.

Qushbegi nomiga yozilgan arizalarda *olijjoho*, *vazoratpanoho* unvonlari bilan murojaat qilingan holda hujjat yozilish tartiblari buzilmasdan rioya qilingan.

Amir nomiga yozilgan arizalarda O'rta Osiyoda o'rta asrlarga xos bo'lgan hujjat yuritishning barcha qonun va qoidalariga rioya qilingan.

² Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамағарма, 1-рўйхат, 590-йиғма жилд, 4-варақ.

³ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамағарма 1-рўйхат, 763-йиғма жилд, 1-варақ.

***Davlat rahbari
bo'lmish Buxoro
amiri tomonidan
viloyat hokimligi
vazifasiga
ta'yinlash
to'g'risidagi
muboraknomalar
(farmonlar)da
xalq manfaatlari
ilgari surilishi
bilan birga viloyat
hokimlarining
kasb axloqlari ham
rasmiy ifodasini
topgan.***

Aholi tomonidan yozilgan arizalar amir yoki qushbegi nomiga qaratilgan bo'lishidan qat'i nazar amir yoki qushbegi devonxonasi devonbegilari tomonidan o'rganilgan va masalaning yechimi yuzasidan yozma javob berilgan. Arizalarda ko'tarilgan masalaning yechimi yuzasidan ijro ko'rsatmalari xoh mahalliy ma'murlar nomiga yozilgan bo'lsin, xoh ariza beruvchi aholi nomiga yozilgan bo'lsin amir yoki qushbegi nomidan chiqqan. Shikoyat arizalariga yozilgan javoblar *muboraknoma* yoki *navozishnoma* deb nomlangan. Mahalliy ma'murlar yoki oddiy aholi vakillari amir yoki qushbegi nomidan kelgan javob xatlarini olishganda amir yoki qushbegi bilan yuzma-yuz turganday tutishib muboraknomani ikki qo'llari bilan ushlab, boshlaridan yuqori ko'tarib, ko'zlariga surtishgan. Aholining muboraknomalarga bunday hurmat bildirishiga sabab islom dinida davlat rahbari Yaratganning yerdagi soyasi (Arab tili matnida "*AsSulton zillu Allohu fi alArzi*" deb keltirilgan hadis ma'nosi o'zbek tilida "*Sulton Allohning yerdagi soyasi*" deb tarjima qilinadi) sifatida ko'rilgani bo'lsa, ikkinchi tomondan muboraknomalarda aholining manfaatlari ilgari surilganligi bo'lgan.

Davlat rahbari bo'lmish Buxoro amiri tomonidan viloyat hokimligi vazifasiga ta'yinlash to'g'risidagi *muboraknomalar* (farmonlar)da xalq manfaatlari ilgari surilishi bilan birga viloyat hokimlarining kasb axloqlari ham rasmiy ifodasini topgan. Jumladan, amir sayyid Abdulahadxon nomidan hijriy 1305-sana (1888-yil) Sha'bon oyida chiqarilgan farmonda quyidagi ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan. Muborizatpanoh a'qidatvufur Muhammadshukurbek miroxurni o'z amalidan qaytarib doru alfoxirai Buxoroyi sharifda to'qsoba unvoni bilan Qaboqli viloyatiga Buxoroyi sharif hukumati nomidan (hokim) mansabiga mansub ko'rilgani to'g'risida oliy yorliq: "Ushbu shaxsni asllar, xos a'yonlar va avom bu mansabga xos ko'rishi, ushbu viloyatda sokin bo'lib yashovchi jumhur vatandoshlar o'zlariga hokim deb bilishlari, shar'iy (qonuniy) ishlarda birlashishlari, mazkur hokim *sipoh* (harbiy) va *ra'ya* (fuqaro) ni tarbiyasiga e'tiborli va tayyor bo'lishi, sharoitni e'tiborga olib davlatga xizmat qilishi, barcha rasmiy ishlarni chiroyli taqdim qilishi, viloyatni obod qilishi, *mushfiq* (mehribon) fuqaroga mehribon bo'lishi, shariat ishlarida *qozi* (sud ishlari) va *muhtasib* (ichki ishlar boshqarmasi) bilan yaxshi hamkorlik qilishi, toki mansab ahli shar'iy hukmda nufuzli bo'lishi (qonunga rioya qilishi), u yer *xazora* (ming kishi yashaydigan aholi) laridan shar'i sharif (qonun) ga muvofiq *xaroj* (er daromadlari solig'i) olishi, navkarlarga yaxshi nazoratda bo'lishi" uqtirilgan⁴.

Xuddi shunday amir sayyid Abdulahadxon tomonidan hijriy 1311-sana (1894-yil) Rajab oyida chiqarilgan Fazilatpanoh duogo'y mullo

⁴ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 6-йиғма жилд, 6-варақ.

Muhammadzarifni rais (ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i) lik mansabiga loyiq kishi bo'lgani uchun Buxoro amirligi Qarshi viloyatiga *ixtisob* (ishki ishlar boshqarmasi) va *ifto* (fatvo berish) ishlarini bajarish uchun tayinlangani to'g'risida yorliqda ham buni ko'rish mumkin. Yorliqda ushbu shaxs viloyat aholisini barcha *shar'iy* (islom qonunchiligi) yaxshiliklarga buyurishi va yomonliklardan ochiqchasiga qaytarishi, xususan, insonlarni jamoat namoziga va bolalarni maktabga targ'ib qilishi, jamoat namozi va maktablarni joriy va barpo qilishi, sharaflilarni, o'rta hollarni va kichiklarni shariat (qonun) ga yaxshilik bilan rioya qilishini ta'minlanishi, nikohda o'zi guvoh bo'lishi yoki mullolarni guvohlikka yuborishi, shariat (qonun) ga tajovuz qilsa mansabidan bo'shatilishi uqtirilgan⁵.

Amir sayyid Abdulahadxon tomonidan hijriy 1318-sana (1900-yil) Rajab almarjab oyida chiqarilgan *yorliq* (farmon) mazmuni Fazilatpanoh mullo Sa'dulloh sudurni Komot tumanida qozilik ishlarini bajarishga buyurilgan. Ushbu tuman aholisi ushbu shaxsni *nofiz alhukm* (nufuzli hukm) qozisi deb bilishlari, barcha ishlarni shar'iy hal qilishda *doru alqazo* (sud mahkamasi)ga borishlari, qozi ham o'z navbatida vazifasini bajarishda shariat (qonun) ga muvofiq ish ko'rishi, nikoh, meros taqsimlash, musulmondan musulmonni haqqini undirib berish kabi barcha ishlarni kitobga rasmiylashtirishi, majnun va yetimning mulkini saqlashda *vasiqa* berishi, ijarani rasmiylashtirganda 1000 tangalik ishdan 5 tanga olishi joizligi va ortiqcha talab qilmasligi, *laqta** va *taraka* (meros taqsimoti) *baytu almol* (davlat xazinasasi) ga kelsa baytu almolning vakiliga yetkazishi, nikoh bo'lgan joyda o'zi *muboshir* (nazorat qilish) bo'lishi yoki tolibi ilmlardan nikohga ta'alluqli masalalarda olim bo'lsa uni yuborishi, nikohda 2 shart ma'lum bo'lsa ortiqcha shart qo'ymasligi, kimsa agar 2 shartdan ortiqcha talab qilsa uni man qilishi, nikohonani berishga qodir bo'lsa nikohda *mankuha* (kelin) *sabiya* (qizbola, bokira) bo'lsa *nokih* (kuyov)dan 10 tanga olishi, barcha ishlarda shariat (qonun) ga tajovuz qilmasligi, agar tajovuz qilsa *azl* (bo'shatilishi) qilinishi ta'kidlangan⁶.

Viloyatlarda boshqaruvning o'ziga xos usuli bo'lib, bugungi qonunchilik nuqtayi nazaridan hokimiyatning uchga bo'linish tamoyiliga yaqin bo'lgan. Muhammadali Baljuvoniyni ma'lumot berishicha, siyosat yuritish uchun saltanat poytaxtidan uzoqda joylashgan viloyatlarda amir tomonidan uchta amaldor tayinlangan. Birinchisi hokim bo'lib, u viloyatning muhofazasi, siyosati va fuqarolar o'rtasida adolat o'rnatish hamda xiroju va dahyak yig'ilishi uchun javobgar bo'lgan. Ikkinchisi

Amir sayyid Abdulahadxon tomonidan hijriy 1318-sana (1900-yil) Rajab almarjab oyida chiqarilgan yorliq (farmon) mazmuni Fazilatpanoh mullo Sa'dulloh sudurni Komot tumanida qozilik ishlarini bajarishga buyurilgan.

⁵ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 6-йиғма жилд, 14-варак.

⁶ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 6-йиғма жилд, 21-варак.

Mirzo Muhammadsharif qozilik lavozimidan ish yuzasidagi jinoyati uchun (qilgan xatosi qayd qilinmagan) mas'uliyatli lavozimidan bo'shatilgan. Ishsiz qolgan qozi aybi kechirilishini, haqiqatda aybdor ekanligini va biror ish berilishini umid qilib ariza yozgan. Amirlik davlat boshqaruviga oid ma'lumotlarda jinoyat bilan bo'shatilgan amaldorlar davlat sohasidagi lavozimlarga ishga olinishi juda qiyin bo'lgan.

shar'iy (qonuniy) masalalarni ko'rib chiqish uchun qozi bo'lib, uning ham bir necha xizmatkorlari, muharrir va noiblari bo'lgan. Nizo va janjallar, shar'iy murofi'alar, masalalar, rivoyatlar tuzish qozining hukmi bilan bo'lgan. Uchinchisi rais bo'lib, u shar'iy murofa'a^{7*8**}, masjidlar va bozorlarni tekshirish, shu o'lka ahlidan bo'lmish musulmonlar ahvolini nazorat qilgan. O'nlab mirzolar, muharrirlar, noib va xizmatkorlar doim qishloq va bozorlarda yurib, ma'muriyat ishlarini ijro etgan. Rais ham rivoyat hozirlab, nizo va bahsli masalalarni amir nomidan hal qilgan⁹.

Bu uch amaldor amir tomonidan tayinlangan. Bular uzri shar'iy bilan gunohkor molini musodara etib, jazo berishga haqlari bo'lgan. Lekin, birovni amir buyrug'isiz va muftiylarning rivoyatisiz qatl qilolmaganlar. Buxoro mulkining har bir shahrida shu uchala amaldorning hukmi joriy va mansub hisoblangan hamda har Juma kuni ular amirdan ko'ngil so'rab, sadoqatlarini izhor qilish bilan birga viloyatda bo'layotgan har bir kichik masalalar yuzasidan ma'lumot berib, amir saroyiga hisobot yuborishlari lozim bo'lgan. Aks holda qattiq jazo berilib (mol-mulki musodara qilinib), vazifasidan olingan yoki hibs etilib, o'rniga boshqa hokim tayinlangan. Ushbu uchala amaldor bir-biridan mustaqil va bir-biriga bo'ysunmagan holda faoliyat olib borishgan va o'zaro bir-birlarini nazorat qilib, birlari boshqalarining faoliyatlari to'g'risida amirga hisobot bergan.

Mirzo Muhammadsharif qozilik lavozimidan ish yuzasidagi jinoyati uchun (qilgan xatosi qayd qilinmagan) mas'uliyatli lavozimidan bo'shatilgan. Ishsiz qolgan qozi aybi kechirilishini, haqiqatda aybdor ekanligini va biror ish berilishini umid qilib ariza yozgan¹⁰. Amirlik davlat boshqaruviga oid ma'lumotlarda jinoyat bilan bo'shatilgan amaldorlar davlat sohasidagi lavozimlarga ishga olinishi juda qiyin bo'lgan.

Ushbu mansab amaldorlari viloyat aholisi tomonidan kelib tushgan shikoyat va arizalarni amir devonxonasiga o'z nomlaridan yuborishgan va aholining arzlari o'zining ijobiy ijrosini topishi uchun mas'ul

⁷ * Ўрганилган ҳужжатлардан вафот этган кишининг меросхўри бўлмаган ҳолларда, молнинг эгаси мавҳум ҳолларда ва топилмалар ҳолатида ушбу молларнинг муайяди шаръийси (шариат белгилаган муддати) ўтгандан сўнг давлатга топширилиши лозим бўлган молларга *лақта* дейилгани маълум бўлади. Лақта масаласини ҳал қилиш, унинг процедурасини ўрганиш ва якуний ҳулоса қилиш қозиларнинг вазифасига кирган.

⁸ ** Мурофаъа-араб тилидаги сўз бўлиб, “суд ишларини олиб бориш”, “суд жараёни”, “ишни ҳал қилиш”, “процессуал кодекс”, “ҳимоячи нутқи” маъноларини беради. Арабско-русский словарь. Том. 1, 2. – Тошкент, 1994. – С. 306.

⁹ Муҳаммадали Балжувоний. Тарихи Нофъий. Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва изохлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. – Тошкент. 2001.

¹⁰ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 37-йиғма жилд, 1-варак.

bo'lishgan. Shuningdek, viloyatdagi bu uchala asosiy amaldor mahalliy boshqaruvni tashkil qilishda ham asosiy ijrochi amaldor bo'lishgan. Rud daryosining janubiy qismida joylashgan Rabotiqozi mavzesi *oqsoqoli* qarilik munosabati bilan oqsoqollik vazifasini bajara olmayotganligi sababli uning o'rniga Iskandarboy ismli mahala fuqarosining nomzodini *sadri rais* mir Badriddin davlat rahbari bo'lgan amirga tavsiya qilgan¹¹. Mahalla oqsoqolliqi vazifasi mahalliy boshqaruvda muhim ahamiyat kasb etganligi va Buxoro amirligida o'ta markazlashgan davlat boshqaruvi asrlar mobaynida shakllanib ulgurgani sababli ushbu vazifani bajaruvchining nomzodini davlat rahbari tasdiqlashi muhim bo'lgan.

Buxoro amirligida o'ta markazlashgan davlat boshqaruvi usuli kuzatilishi bilan birga, bugungi demokratik tamoyillardan bo'lgan fuqarolik jamiyati amalda ustuvor bo'lganligini kuzatish mumkin. Xususan, fuqarolar o'zlariga tegishli bo'lgan barcha ijtimoiy masalalarda, jumladan, kichik jamiyatlarni boshqarishda ham o'zlari yetakchi bo'lishgan. Davlat ham o'z o'rnida fuqarolarning talab va taklifini qo'llab-quvvatlagan va ularning arizalarida bildirgan talablariga ijobiy javob bergan.

G'ijduvon bozoridagi kalish sotuvchilari rastasi *oqsoqoli* Rahmat dallollik ishlarida jamoa haqqiga xiyonat qilganligi (guruhbozlik qilgani) sababli o'zlariga jamoa ichidan usta Sulaymonni *ustaboshi* (oqsoqol) qilib ta'yinlashni so'rab amir nomiga ariza yuborishgan. Amir bu ishni tahqiq qilishni qoziy mullo mir Sirojiddin sudurga topshirgandan so'ng qozi jamoa vakillarini huzuriga chaqirtirib vaziyatga aniqlik kiritgan va amirga ariza bilan vaziyatni bayon qilgan¹². Amirlik iqtisodiy siyosatida bozorlar va hunarmand-tijoratchilarning ahamiyati, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarning har bir jamoa vakillari o'z oqsoqoliga ega ekanligi, bu jamoalarning davlat rahbari e'tiboridan chetda qolmasligi muhim bo'lgan.

Buxoro amirligi Qarshi viloyatidagi Qoramang'it jamoasi *elbegisi* Pirimqul vafot etganligi sababli jamoadagi ishlar orqada qolgan. Jamoadagi ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish uchun tezroq o'zlariga elbegi ta'yinlanishi uchun nomzodni tasdiqlashni so'rab amirga murojaat qilishgan. Amir vaziyat yuzasidan aniqlik kiritib hisobot berish uchun ikki obro'li amaldorlar Muhammadikrombiy dodxoh xo'ja va qoziy mullo Muhammadbaqoxo'ja sudurga topshirgan. Ushbu amaldorlar jamoa vakillarini poytaxtga chaqirtirib vaziyatga aniqlik kiritishgan va o'zlari saylagan nomzod jamoadosh birodarlari mullo Jo'ra ismli kishi haqida ham surishtirishgan. Surishtiruv natijalari haqida amirga hisobot

Buxoro amirligida o'ta markazlashgan davlat boshqaruvi usuli kuzatilishi bilan birga, bugungi demokratik tamoyillardan bo'lgan fuqarolik jamiyati amalda ustuvor bo'lganligini kuzatish mumkin. Xususan, fuqarolar o'zlariga tegishli bo'lgan barcha ijtimoiy masalalarda, jumladan, kichik jamiyatlarni boshqarishda ham o'zlari yetakchi bo'lishgan. Davlat ham o'z o'rnida fuqarolarning talab va taklifini qo'llab-quvvatlagan va ularning arizalarida bildirgan talablariga ijobiy javob bergan.

¹¹ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 16-йиғма жилд, 3-варак.

¹² Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 26-йиғма жилд, 1-варак.

***Kitob viloyatida
yashovchi 27
xonadonli
yahudiylar jamoasi
kalontari (oqsoqoli)
Is'haq ushbu
viloyat qozisiga
murojaat qilib o'z
vazifasini uddalay
olmayotganligini
va jamoa
oqsoqolligini
bajarmasligi
bildirgan. Shu
bilan birga
ushbu jamoa
vakillari o'zlariga
muqaddam
kalontar bo'lgan
Yusuf yahudiyni
yana kalotar
bo'lishini
so'rashgan.***

berib ariza kiritishgan¹³. Amirlikdagi turli chorvador va ko'chmanchi elatlar jamoasi elbegi vazifasini bajaruvchi shaxs orqali boshqarish an'ana bo'lgan, elbegilarni jamoa vakillari o'zlari ochiq ovoz berish orqali saylashgandan keyin nomzodini tasdiqlash uchun mahalliy ma'muriyatga yoki amirga murojaat qilishgan, davlat rahbari ham bu kabi an'anlarga sodiq ravishda ularning murojaatlariga javoban ikki obro'li mulozimni mas'ul qilgan. Aksar hollarda bu kabi masalalarni o'rganish uchun amir devonxonasidan ta'yinlangan mas'ullar ming kilometrlab uzoq hududlarga borib, amir nomidan masalaga oydinlik kiritishib, so'ngra amir devonxonasiga yozma hisobot arizasini yuborishgan.

Kitob viloyatida yashovchi 27 xonadonli yahudiylar jamoasi kalontari (oqsoqoli) Is'haq ushbu viloyat qozisiga murojaat qilib o'z vazifasini uddalay olmayotganligini va jamoa oqsoqolligini bajarmasligi bildirgan. Shu bilan birga, ushbu jamoa vakillari o'zlariga muqaddam kalontar bo'lgan Yusuf yahudiyni yana kalontar bo'lishini so'rashgan. Qozi esa vaziyat yuzasidan tafsilotlarni bildirgan holda kalontarlikka tavsiya qilingan Yusufning nomzodini tasdiqlab yorliq yuborishni xizmat yuzasidan amirga yozma ariza bilan ma'lum qilgan¹⁴. Mahalliy boshqaruvda viloyatlarda yashovchi kam sonli diniy va milliy jamoalarning ham o'z jamoaviy birligi va oqsoqoli bo'lgan, bu jamoalarning huquqi ko'p sonli jamoalar bilan teng ko'rilgan va davlat ro'yxatida turgan, ushbu jamoalar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarda o'z ishlarini oqsoqoli orqali amalga oshirgan. Oqsoqollar xalq orasidan, xalq ko'rsatgan nomzod asosida saylangan. Oqsoqol nomzodini viloyatdagi yuqori turuvchi amaldorlar tasdiqlagan. Viloyat ma'murlari tomonidan aholi shikoyatlari e'tiborsiz qoldirilgan vaziyatda, xalq o'z e'tirozini amirga yetkazgan holatda amir yuborgan mas'ul kishilar mahalliy aholi nomzodini oqsoqollikka tasdiqlashgan.

Buxoro amirligi iqtisodiy siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yishida davlat tomonidan qurilgan bozorlar kabi xususiy bozorlarning ham o'rni katta bo'lgan. Bozorlarda bo'ladigan oldi-sotdi ishlarini amalga oshirishda vositachilik qilish, tovarlar sifati uchun javobgarlik, o'g'irlagan mollar savdosining odini olish, qarzga savdo qilishda guvohlikka o'tish, savdogarlarni bozor hududiga joylashtirish ishlarini dallol bajarganligi sababli dallollik vazifasini bajaruvchi shaxs amir tasdig'idan o'tishi va maxsus yorliq asosida tasdiqlanishi shart bo'lgan. Bu kabi ishlarni tartibga solishda markaziy hokimiyat hududlardagi sud vazifasini bajaruvchi qozilar orqali amalga oshirgan.

¹³ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 28-йиғма жилд, 3-варақ.

¹⁴ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 32-йиғма жилд, 5-варақ.

Quyidagi amirga yozilgan tavsiyanoma arizasida Qarshi bozorlariga dallol nomzodini tasdiqlash to'g'risida amir nomiga yozilgan iltimosnoma mazmuni fikrimizni tasdiqlaydi. Qarshi bozori dalloli Solih ismli dallol olamdan o'tganligi sababli Abdulkarim ismli savdogarning nomzodini dalollik vazifasini bajarishga bozor savdogarlari ma'qul ko'rishgan. Abdulkarim savdogarning o'zi vaziyatni ma'lum qilib amirga ariza bilan murojaat qilgan. Amir viloyat qozisiga vaziyatni o'rganish uchun topshiriq bergan. Qozi esa vaziyatni o'rganib Abdulkarim savdogarning dalollik vazifasini bajarishga loyiq ekanligini bildirib ariza bilan amirga murojaat qilgan. Shuningdek, Qarshidagi teri bozori dalloli Shodmonboy olamdan o'tganligi sababli qarshilik mullo Abdulvohid ismli savdogarni bozor savdogarlari dalollik vazifasini bajarishga loyiq ko'rayotganliklarini ma'lum qilib amirga ariza bergan. Amir vaziyatni o'rganishni qoziga topshirgan. Qozi esa vaziyatni o'rganib amirga mullo Abdulvohidning nomzodi dalollik vazifasini bajarishga loyiq ekanligini bildirib amirga ariza bilan murojaat qilgan¹⁵.

Davlat rahbariga qilingan yozma murojaatlarda davlat rahbaridan ish so'ralgan murojaatlar ham bo'lgan. Mirzojon maxdum muftiyi askarning o'g'li Qozijon amirga ariza bilan murojaat qilib o'zining hech narsasi yo'qligini, nihoyatda kambag'alligini bildirib, davlat tizimi sohalaridan ish berishini iltimos qilgan¹⁶.

Davlat sohasida ish bilan ta'minlaganlar quyidagi tarzda o'z minnatdorchiligini izhor qilgan. Mirzo Sa'dulloh Buxoro shahriga *qo'rchi* mansabiga musharraf bo'lganligi to'g'risidagi amirning *yorlig'ini* mirzo Hidoyatullohbek qorovulbegi *doka, kuloh* (bosh kiyim), *lattali kandil chopon, farangi chopon* kabi sarpolar bilan topshirgan. Ushbu xabarni olgan mirzo Sa'dulloh amirdan minnatdor ekanligi, uning haqqiga barcha fuqarolardan duo olganligi, o'zi ham duo qilganligi, Karmanadagi arki oliyning *ostonmurod* (fuqarolar murodiga yetadigan ostona)ini o'pib, chin dildan davlatga xizmat qilishini bildirgan¹⁷. Amirlik ijtimoiy hayotida fuqaro yoki kichik amaldorlar biror mansabga musharraf bo'lganligi munosabati bilan davlat rahbariga hurmati va minnatdorchilik bildirishi davlat va fuqarolarning siyosiy munosabatlarini bildiradi.

Muborizatpanoh Aliakbar qorovulbegi (Dehnav viloyati hokimi) qushbegiga ariza yozib viloyatdagi kichik vazifalarni bajarish uchun bir qator shogirdpeshalarga ehtiyoj borligini bildirgan. Uning arizasiga binoan qushbegi poytaxtdan Dehnav viloyatiga bir necha *shogirdpasha*

Davlat rahbariga qilingan yozma murojaatlarda davlat rahbaridan ish so'ralgan murojaatlar ham bo'lgan. Mirzojon maxdum muftiyi askarning o'g'li Qozijon amirga ariza bilan murojaat qilib o'zining hech narsasi yo'qligini, nihoyatda kambag'alligini bildirib, davlat tizimi sohalaridan ish berishini iltimos qilgan.

¹⁵ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 35-йиғма жилд, 1-варақ.

¹⁶ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 37-йиғма жилд, 8-варақ.

¹⁷ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 38-йиғма жилд, 38-варақ.

***Buxoro amirligida
adolatli boshqaruv
va insonparvar
siyosat olib borish
yoʻlida koʻplab
amaldorlarning
xalqning
ahvoli haqidagi
maʼlumotlarni
qushbegi (bosh
vazir)ga bildirib
ariza yozishgan.
Vagʻonza tumani
aholisi soliqlardan
bir necha yillik
qarzi borligi
sababli tuman
qozisi ushbu
qarzlarni kechib
yuborishni
murojaat qilib,
qushbegiga ariza
bilan bildirgan.***

(Shogirdpesha – lugʻaviy “yonda turgan shogird” maʼnosini beradi. Amirlik boshqaruvida *shogirpesha* deb hokim va amir huzuridagi barcha lavozimi boʻlmagan xizmatchilar nomlangan) lar yuborgan. Yuborilgan shogirdpeshalar orqali berib yuborilgan *inoyatnomada* shogirdpeshalarning holiga *muvofig* (loyiq) xizmat buyurishlari, ularning ozuqasi taʼminlanishi haqida koʻrsatma ham berilgan. Shogirdpeshalarni qabul qilib olgan (ushbu hujjat yozgan masʼul) amaldor ijro yuzasidan amirga hisobot bergan¹⁸. Amirlik tarixiga oid manba va hujjatlarda boshqaruv tizimini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish uchun xodimlarning madrasani tugatgandan soʻng bir va ikki yil biror amaldor huzurida amaliyot oʻtashi muhim boʻlganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar mavjud. Ushbu hujjatda ham viloyat hokimining shogirdpeshalarga ehtiyoj borligini va uning talabiga muvofiq shogirdpeshalar yuborilgani maʼlum boʻladi.

Buxoro amirligida adolatli boshqaruv va insonparvar siyosat olib borish yoʻlida koʻplab amaldorlarning xalqning ahvoli haqidagi maʼlumotlarni qushbegi (bosh vazir)ga bildirib ariza yozishgan. Vagʻonza tumani aholisi soliqlardan bir necha yillik qarzi borligi sababli tuman qozisi ushbu qarzlarni kechib yuborishni murojaat qilib, qushbegiga ariza bilan bildirgan. Tuman aholisining turmush tarzi ogʻirligi, aholi koʻp masalalarda qarzgʻa kirib qolganligi, hatto ushbu tumandagi Qamarbod mavzesidan Homidbek olib bergan tashlandiq joyda 4 yil davomida barpo qilgan bogʻini qozining oʻzi sotib fuqarolarning qarzini toʻlaganligini bildirgan. Ishdan ketar oldi tuman qozisi oʻz zimmasida va tuman aholisi zimmasida qarz qolmasligini iltimos qilgan. Qozining barcha bajarayotgan ishlari Yaratganning oldida savob boʻlsa, janob amirning haqqiga beadam duolar boʻlishini va amirning obroʻsi xalq oldida baland boʻlishini bildirgan¹⁹.

Qorategin viloyati hududidagi Mustmarshoh, Muhammadalishoh, Olamshoh, Abduraxmonshoh, Jahonshoh, Xaydarbek ismli kishilar sobiq Qorategin shohlari avlodlaridan boʻlib, badargʻa (sababi qayd qilinmagan) qilinganliklari sababli 15,20 yil davomida Chorjoʻy va boshqa viloyatlarda darbadar yurishgan. Ushbu shaxslarning xotinlari ota uylarida yashab, qiyinchilik bilan odamlarning eshigida xizmat qilib kun koʻrishayotganligi, agar amir hazratlari erlarini uylariga qaytishga ijozat bersa bagʻoyat savob olib, bu zaifalarning duolariga musharraf boʻlishlarini bildirishgan. Vaziyat yuzasidan viloyat qozisi taftish olib borib, amirga ariza bilan murojaat qilib, vaziyatni bildirgan²⁰.

¹⁸ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 45-йиғма жилд, 1-варақ.

¹⁹ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 203-йиғма жилд, 1-варақ.

²⁰ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 517-йиғма жилд, 5-варақ.

Buxoro amirligida fuqarolarning ijtimoiy ahvoli to'g'risida mansabdor shaxslar amirga ariza bilan bildirish amaliyoti mavjud bo'lgan. Ushbu hujjat mazmuniga ko'ra turli siyosiy hodisa tufayli davlat tomonidan badarg'a qilingan shaxslar uchun ham avf so'ralganligi bilinadi.

Buxoro amirligi davlat siyosatiga qarshi og'ir jinoyat qilgan, davlat siyosatiga qarshi ish qilgan, siyosatga qarshi guruhlarini qo'llab-quvvatlagan shaxslar o'lim jazosiga (islom davlatida jinoyatning og'irligiga qarab shariat hukmi ham o'lim jazosiga buyuradi. Islom davlati siyosatiga qarshi chiqqanlar *bog'iy* (ichki dushman) hukmida bo'lgan) mahkum qilingan yoki surgun qilingan. Surgun qilinganlar qilgan ishlariga tavba qilishib, afv so'rashganda davlat rahbari tomonidan ularga afv e'lon qilingan.

Muqim eshikoqoboshi, Shokirxo'ja sudur, Burxonxo'ja o'roq, Aliqul to'qsoba, Umarqul to'qsoba, Niyozali to'qsoba, Himmat miroxur, Yo'ldosh miroxur, Abduraxim miroxur, To'xtamish qorovulbegi, mirzo Abdulmalik qorovulbegilar qilgan ishlariga (qilgan jinoyatlari keltirilmagan) pushaymon bo'lib, tavba qilishganliklarini va amirning afvini so'rab *ark* (amir devonxonasiga) *ga* murojaat qilishgan. Ularning afv so'rab yozgan arizalariga javoban amir afv qilganliklari to'g'risida muboraknoma yuborgan. Muboraknomani olgandan so'ng ushbu 11 nafar shaxs amirga minnatdorchilik izhor qilganliklarini ma'lum qilib Muhammadsharifbiy ismli mansabdor ariza bilan ma'lum qilgan²¹.

Junaydulloh ismli kishi surgun (surgun sababi keltirilmagan) qilinganligi sababli Ostanaqulbiy devonbegi zakotchi tomonidan ushbu devonbegining odami hamrohligida Ostanaqulbiy kulli qushbegi (bir vaqtning o'zida Hisor viloyati hokimi ham bo'lgan) ga yetkazib, topshirgan. Ostanaqulbiy kulli qushbegi Hisor viloyati hokimi bo'lganligi sababli surgun qilingan Junaydullohni amlokdorxonaga oyiga 30 tanga maosh hisobiga ishga joylagan. Ushbu holat yuzasidan viloyat raisi amirga hisobot bergan²². Buxoro amirligida biror jinoyati yoki davlat boshqaruvi va siyosatiga nisbatan shubha uyg'otgan shaxslar surgun qilingan holatda ish bilan ta'minlangan. Surgun qilinganlarning mehnat qilib kun ko'rishlari uchun imkoniyat berilishi davlat siyosatida ijtimoiy va insoniy omillar e'tiborga olinganligini bildiradi.

Soliqlarning noto'g'ri yig'ilayotganligi to'g'risida fuqarolar soliq nozirlari ustidan shikoyat qilishgan. Shikoyatlar qushbegi devonxonasida o'rganilib, ba'zi holatlarda shikoyat qiluvchining

Buxoro amirligi davlat siyosatiga qarshi og'ir jinoyat qilgan, davlat siyosatiga qarshi ish qilgan, siyosatga qarshi guruhlarini qo'llab-quvvatlagan shaxslar o'lim jazosiga (islom davlatida jinoyatning og'irligiga qarab shariat hukmi ham o'lim jazosiga buyuradi. Islom davlati siyosatiga qarshi chiqqanlar bog'iy (ichki dushman) hukmida bo'lgan) mahkum qilingan yoki surgun qilingan.

²¹ Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 517-йиғма жилд, 8-варақ.

²² Ўзбекистон Миллий архиви, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 517-йиғма жилд, 1-варақ.

*Hisor, Ko'lob
va Baljuvon
aminonachilari
aminonani
yig'ish jarayonida
uni qonunda
ko'rsatilgan
miqdordan
ortiqcha olishga
urinib, fuqarolarga
tashvish
keltirganligi
sababli amir
nomiga
fuqarolardan
shikoyat arizasi
tushgan. Amir
esa viloyatlardagi
amaldorlarga
muboraknoma
yuborib,
tayinlangan
aminonachilar
amaldagi
qonunlarga
xilof ish
ko'rishmasligini
qattiq tanbeh
asosida
ta'kidlagan.*

haqligi qushbegi devonxonasining o'zida aniqlanib, xatoni to'g'irlash masalasidagi ko'rsatma soliq nozirlariga yuborilgan. Ba'zi hollarda kelib tushgan shikoyat yuzasidan masalani o'rganish va javobini qushbegi devonxonasiga yuborishni mahalliy ma'muriyatga yuklangan. Soliq to'lovchilarning haqligi bilingandan so'ng soliq nozirlariga ko'rsatma berilgan va farmoyish so'nggida ogohlantirish berdik (*ogohi menamoyim*) deb yozilgan²³. Bunday ogohlantirish olgan amaldorlar keyinchalik ish yuzasidan yana shunday kamchiliklarga yo'l qo'ysa oqibati ishdan bo'shatilish va mol-mulki musodara qilinish bilan yakunlagan.

Hisor, Ko'lob va Baljuvon aminonachilari aminonani yig'ish jarayonida uni qonunda ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha olishga urinib, fuqarolarga tashvish keltirganligi sababli amir nomiga fuqarolardan shikoyat arizasi tushgan. Amir esa viloyatlardagi amaldorlarga muboraknoma yuborib, tayinlangan aminonachilar amaldagi qonunlarga xilof ish ko'rishmasligini qattiq tanbeh asosida ta'kidlagan²⁴.

Amirlikda fuqarolar turli masalalar yuzasidan kelib chiqadigan muammoli vaziyatlarda o'z noroziliklarini amirga yozma ariza bilan shikoyat qilishgan. Fuqarolardan tushgan shikoyat xatlari doimo amir nazoratida bo'lib, arizalarga javob muboraknomalari berilgan. Muboraknomalarda amir shikoyat qilingan masalani o'rganib chiqishni biror mulozimga topshirgan. Topshiriqni olgan mulozimlar hududlarga borib, masalani o'rganib, muammoni ariza beruvchilar foydasiga hal qilinganligi to'g'risida amirga hisobot berishgan²⁵.

Amirlikda qonunchilik tizimi shariat qonunlari asosida yuritilgan, xalq o'z huquqlarini yaxshi bilgan, ammo, amirlikdagi markaziy boshqaruv usuli viloyatlardagi kichik masalalarni hal qilishda ham amirning aralashuvini taqozo qilgan. Viloyat hokimlari kichik masalalar yuzasidan ham amirga murojaat qilishib, uning javobini kutishgan. Aynan bir masala yuzasidan hokimlar o'zlariga qulay bo'lishi uchun amirdan muboraknoma olganliklari tufayli xalq masala yechimini uzoq muddat kutishiga to'g'ri kelishi natijasida noqulaylik va qiyinchiliklar yuzaga kelgan²⁶.

Buxoro amirligida fuqarolar qonuniy talablardan tashqari o'zlarining shaxsiy muammolari yuzasidan ham amir devonxonasiga iltimos xatlari bilan murojaat qilishgan²⁷.

²³ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 624-йиғма жилд, 5-варак.

²⁴ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 607-йиғма жилд, 5-варак.

²⁵ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 605-йиғма жилд, 9-варак.

²⁶ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 609-йиғма жилд, 3-варак.

²⁷ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 646-йиғма жилд, 13-варак.

Buxoro amirligida adolatli siyosatni amalga oshirishning yana bir jihatini qayd etish lozim. Bu amaldorlarning fuqarolar bilan xushmuomalalik bilan murojaat qilish talab qilinganligidir²⁸. Amir hududlarga o'z mulozimlarini yuborgan vaqtda ularga fuqarolarning ko'nglini og'ritmasdan, ularni ranjitmagan holda, xushmuomalalik bilan, nafratini qo'zg'atmasdan muomala qilish lozimligini ta'kidlagan. Amirning bu siyosati mulozimlarning amirga yozgan arizalarida ham o'z aksini topgan.

Amirlik fuqarolarining davlat rahbariga qilgan shikoyati, talab va takliflari muhim va asosli bo'lishi bilan birga amir devonxonasidan fuqarolarning arizalariga javoblar va ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan ko'rsatmalar fuqarolarning talablarini qanoatlantirish yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Buxoro amirligi amaldorlarining amirga bergan yozma hisobotlari matnida *duo qilish* deganda rozilik va shukronalik ma'nosi tushunilgan. Amirning nomiga duo olish deyilganda fuqarolarning roziligini olish ma'nosi tushunilgan. Talablari qanoatlangan fuqarolarning fikrlari hisobotlarda fuqarolar tilidan amirga ma'lum qilingan.

Amirga yozilgan arizalarda *“dar haqqi janobi o'liy duogo'yi mekunand”* (janobi oliyning haqiga duo qilishmoqda) deyilib, amirdan va u yurgizayotgan siyosatdan roziliklari ma'lum qilingan²⁹.

Xulosa. O'rganilgan hujjatlardan Buxoro amirligida amir va qushbegi devonxonasi devonbegilari tomonidan fuqarolardan kelgan shikoyat arizalari o'rganilganini, arizalarga javob yozilganini va amir nomidan arizalarni ko'rib chiqish yuzasidan ko'rsatma berilgani ma'lum bo'ladi. Ushbu hujjatlarni o'rganish Buxoro amirligida davlat va fuqaro munosabatlari faol bo'lganligidan, ko'plab masalalarda fuqarolar o'z tashabbus va takliflarini davlat rahbariga ma'lum qilishi va bu takliflarni davlat rahbari ma'qullab ularning ijrosini amalga oshirish yuzasidan ko'rsatma berganligi amirlikda fuqarolik jamiyati tamoyillari amalda ustuvor bo'lganligidan dalolat beradi. Buxoro amirligi fuqarolari Buxoro arki darvozasini *darvozai arki murodrason*, ya'ni murodga yetadigan ark darvozasi yoki *arki mu'adalatmadori oliy*, ya'ni oliy adolat quvvati bo'lgan ark deb atashgani hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Amaldorlar amirga yozgan hisobotlarida o'z murodiga yetgan fuqarolarning amirga minnatdorchilik izhorlarini ma'lum qilishgan. O'rganilgan hujjatlar tahlili Buxoro amirining arki o'z davrida davlat rahbarining fuqarolar muammosini eshitadigan va uni insonparlik tamoyillari asosida qonuniy ko'rib chiqadigan qabulxona vazifasini bajarganini ko'rsatadi.

Amirlik fuqarolarining davlat rahbariga qilgan shikoyati, talab va takliflari muhim va asosli bo'lishi bilan birga amir devonxonasidan fuqarolarning arizalariga javoblar va ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan ko'rsatmalar fuqarolarning talablarini qanoatlantirish yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

²⁸ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 622-йиғма жилд, 20-варақ.

²⁹ Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 638-йиғма жилд, 1-варақ.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мухаммадали Балжувоний. Тарихи Нофеъий. Тоҷик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. Тошкент. 2001.
2. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 587-йигма жилд, 11-варақ.
3. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 590-йигма жилд, 4-варақ.
4. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 763-йигма жилд, 1-варақ.
5. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 6-йигма жилд, 6-варақ.
6. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 6-йигма жилд, 14-варақ.
7. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 6-йигма жилд, 21-варақ.
8. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 37-йигма жилд, 1-варақ.
9. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 16-йигма жилд, 3-варақ.
10. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 26-йигма жилд, 1-варақ.
11. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 28-йигма жилд, 3-варақ.
12. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 32-йигма жилд, 5-варақ.
13. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 35-йигма жилд, 1-варақ.
14. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 37-йигма жилд, 8-варақ.
15. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 38-йигма жилд, 38-варақ.
16. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 45-йигма жилд, 1-варақ.
17. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 203-йигма жилд, 1-варақ.
18. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 517-йигма жилд, 5-варақ.
19. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 517-йигма жилд, 8-варақ.
20. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-жамғарма, 1-рўйхат, 517-йигма жилд, 1-варақ.
21. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 624-йигма жилд, 5-варақ.
22. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 607-йигма жилд, 5-варақ.
23. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 605-йигма жилд, 9-варақ.
24. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 609-йигма жилд, 3-варақ.
25. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 646-йигма жилд, 13-варақ.
26. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 622-йигма жилд, 20-варақ.
27. Ўзбекистон Миллий архиви, И.126-фонд, 1-рўйхат, 638-йигма жилд, 1-варақ.